

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.K.Kurbaniyazova	
Milliy mentalitetning tilda namoyon bo'lishi	106
Sh.D.Shodmonova	
Jamoat xavfsizligini ta'minlash, unga qarshi tahdidlarni oldini olishning ijtimoiy zarurati	110
A.I.Samijonov	
“Xavfsizlik” va “Kiberxavfsizlik” atamasining mazmun-mohiyati va jamiyat hayotida xavflilik darajasini baholanishi	114
N.X.Djalalova	
Yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi	119
I.Z.Nazarova	
Yangi O'zbekistonda milliy san'at taraqqiyotining istiqbollari	123

ТАРИХ

A.B.Musayev	
Qo'qon xonligining tashkil topishi arafasida Farg'ona vodiysi	129
Ф.А.Эгамбердиев	
Некоторые вопросы использования института жалоб как способ защиты прав участников на досудебной стадии уголовного процесса	133
M.M.Xolmatov	
O'zbekistonda kollektivlashtirish asosida agrar sohaning isloh qilinishi va uning oqibatlarini.....	138
N.R.Israilov	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati Lui Le Rua talqinida.....	144
O.B.Nizomiddinov	
Farg'ona vodiysida 1920-1930 yillarda ta'lim tizimining rivojlanishi: birinchi oliy ta'lim muassasaning tashkil etilishi	149

АДАБИЙОТШУНОСЛИК

Q.V.Yo'lchiyev	
O'zbek she'riyatida anor obrazining tadriji takomili	156
A.Badalova	
The effect of war to the inner world of characters in leo tolstoy's novel "War and peace"	161
S.F.Yuldosheva	
Xalq qissalarida Hazrati Xizr Alayhissalom obrazi	166
D.I.Nazarova	
Hozirgi aruziy she'rlarning qofiya tuzilishi	170
S.A.Xodjayev, O.Y.Sobirjonova	
Epik asar syujetida uchrashuv Motivining o'rni (L.Tolstoyning “Baldan so'ng” hikoyasi misolida).....	175
M.R.Oxunova	
Sharlotta Bronte “Jeyn Eyr” romanida xarakter tasviri	178
L.Hasanova	
Aesthetics of the literary direction romanticism	182
Q.V.Yo'lchiyev	
Abdulla sher sonetlari tahlili	186
Z.F.Shukurova	
“Tarixi Rashidiy” asarining hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil talqini	192

ТИЛШУНОСЛИК

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Metaforalarning poetik matndagi o'rni (Siddiq Mo'min ijodi misolida).....	195
Z.V.Alimova	
Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi “Zar” va “Zarra” asoslari bilan bog'liq leksemalar xususida	198



UO'K 130.1

MILLIY MENTALITETNING TILDA NAMOYON BO'LISHI

ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО МЕНТАЛИТЕТА В ЯЗЫКЕ

REFLECTION OF THE NATIONAL MENTALITY IN THE LANGUAGE

Kurbaniyazova Raushana Kurbanbaevna 

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada xalqimizning tafakkur tarzini ifoda etuvchi milliy mentaliteti va uning tilda namoyon bo'lish jihatlari yoritilgan. Insonning ongi, milliy urf-odatlarini, mentalitetini, muomala madaniyati milliy muhit va milliy til bilan bog'langan. Mentalitet tilda o'zini ob'ektivlashtiradi va til unda dunyo qadriyatlar tizimi va xatti-harakatlar normalari haqidagi g'oyalarning o'ziga xosligini shakllantiradigan asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga to'plangan bilimlarni, tajribalarni qayd qilish, saqlash va avloddan avlodga o'tkazish vositasi hamdir.

Аннотация

В данной статье описывается национальный менталитет, выражающий образ мышления нашего народа, и аспекты его проявления в языке. Сознание человека, национальные традиции, менталитет, культура поведения связаны с национальной средой и национальным языком. Менталитет есть объективация самого себя в языке, а язык служит основой формирования своеобразия идей в системе мировых ценностей и норм поведения. В то же время это еще и средство записи, хранения и передачи накопленных знаний и опыта из поколения в поколений.

Abstract

This article describes the national mentality, expressing the way of thinking of our people, and aspects of its manifestation in the language. Human consciousness, national traditions, mentality, culture, behavior associated with the national environment and national language. Mentality is the objectification of oneself in language, and language serves as the basis for the formation of the originality of ideas in the system of world values and norms of behavior. At the same time, it is also a means of recording, storing and transmitting accumulated knowledge and experience from generation to generation.

Kalit so'zlar: Mentalitet, milliy mentalitet, til, mif, urf-odatlar, til va madaniyat, o'z-o'zini saqlab qolish, tilga e'tibor-elga e'tibor, ona tili

Ключевые слова: Менталитет, национальный менталитет, язык, миф, обычаи, язык и культура, самосохранение, обращение к языку – обращение к народу, родной язык

Key words: Mentality, national mentality, language, myth, traditions, language and culture, preservation of identity, appeal to language - appeal to the people, mother tongue

KIRISH

Globalashuv jarayonlari natijasida xalqaro maydonda shiddat bilan kechayotgan madaniy yaqinlashuv ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga, ayniqsa xalqlarning milliy mentalitetiga ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, mazkur jarayonni faol boshqarishga intilayotgan davlatlar umumjahon madaniyatini shakllantirishga urinmoqda. Shu sababdan millatlar va uning o'ziga xos jihatlari ifoda etuvchi, milliy til, milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlar va milliy tarixni o'rganish va asrlar mobaynida sayqallangan milliy mentalitetini saqlab qolish ahamiyatiga ko'ra boshqa global muammolardan qolishmaydigan jahon miqyosidagi masalaga aylandi.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev qayd etganlaridek: "Dunyodagi raqobatga bardoshli, jahon maydonida o'z o'rniga ega bo'lishga intilayotgan har bir xalq shu masalalar haqida jiddiy o'ylaydi, bu borada amaliy choralarni ko'radi. Aks holda u, hech shubhasiz, xalq va millat sifatida o'zligini boy beradi" [2, 267].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Falsafa qomusiy lug'atida "mentalitet (lot. mens – aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, hayot qonunlarini tahlil

FALSAFA

etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllanadigan aqliy qobiliyati" [16, 257], - deb ta'rif berilgan.

Milliy mentalitet – "millatning mentaliteti, tabiiyki faqatgina qadriyatlar xazinasini bilan belgilanmaydi. Milliy mentalitet millatning kundalik hayoti uning o'zini tutishi, bo'layotgan voqea va hodisalarga munosabati, xulq-atvori, fe'li, xatti-harakati orqali namoyon bo'ladi" [11, 3].

Ma'lum bir jamiyatning, millatning mentalitetini o'rganish juda ko'p omillar bilan bevosita bog'liq bo'lib, millat yashab turgan shart-sharoit, tarixiy davr, uning o'tmishi, millatning ruhiyati va boshqa millatlar bilan qiyosiy tahlil etilishi lozim. Millat va shaxsning mentaliteti ularning o'ziga xos milliy an'analari, rasm-rusumlari, urf-odatlarini, diniy e'tiqod va qarashlarini qamrab oladi. Mentalitet tilda, an'analarda, odatlarda, ongning o'z-o'zini boshqarishida namoyon bo'ladi.

"Tilning, shuningdek, afsona va urf-odatlarining "milliy ruh"ning asosiy unsurlari sifatidagi rolini eksperimental psixologiya asoschisi V.Vundt tushuntirib bergan, inson ruhining teran qatlamlarini uning til, miflar va odatlardagi ifodalarni o'rganish yo'li bilan aniqlash vazifasini qo'ygan" [14, 60]. Uning fikricha, til, mif va urf-odatlar ijodiy milliy ruhning har qanday bo'lagi emas, balki "xalqning o'z ruhi" dir. Shu bilan birga, u umumiy xalq ruhi avvalo milliy ongda namoyon bo'lishini ta'kidladi. "Til xalq va xalq ruhida yashovchi g'oyalarning umumiy shaklini va ularning bog'lanish qonunlari o'z ichiga oladi" [6, 26].

"A.Ful'e milliy mentalitetning shakllanishini muloqot bilan bog'laydi. Uning fikricha, aynan milliy til negizida amalga oshiriladigan muloqot jarayonida his qilish, o'ylash va istashning jamiyat ayrim a'zolari yoki ularning arifmetik yig'indisiga xos bo'lgan usulidan farq qiladigan yagona usuli shakllanadi" [14, 61]. "Individu va uning o'z hamfuqarolariga bo'lgan munosabatida u mansub bo'lgan mamlakatning butun tarixi aks etadi" [7, 16], - deb yozgan edi Ful'e. Ayni shu jihatdan milliy birlik bir-biri bilan bevosita aloqa qiluvchi odamlarning emotsional rezonansi bilangina birlashgan olomondan farq qiladi. Millat muhitida o'zaro aloqa murakkabroq tarzda amalga oshiriladi va bu darajada o'tkinchi xususiyat kasb etmaydi.

"V.Gumbol'dt bejiz tilni xalq ruhini tashuvchisi deb atamagan, chunki til va ma'naviy qadriyatlar tizimi bir-biri bilan chambarchas bog'liq. V.Gumbol'dt tilning ichki shaklining o'ziga xos xususiyatlari (grammatikasi, semantik tuzilishi) orqali xalq ruhini qayta qurish vazifasi sifatida qo'yadi" [8, 1985].

NATIJA VA MUHOKAMA

Professor M.Bekmurodov: "Mentalitet millatlarning aqliy intellektual imkoniyatlari va ruhiy o'ziga xosliklarni qamrab oladi. Xarakterdagi o'ziga xosliklarning negizini esa shu xalqning tarixiy tajribalari, urf-odatlarini, marosim va ma'rakalarining yaxlit tizimi tashkil etadi" [4,98], - deb ta'rif berganlar.

Muallif fikricha, mentalitet u yoki bu jamiyatning bir madaniyatga mansub bo'lgan kishilarida ularga o'z tabiiy va ijtimoiy muhiti hamda o'z-o'zini o'ziga xos tarzda idrok etish va anglab yetish imkoniyatini beradigan muayyan "aqliy vosita", "ruhiy dastak" mavjudligini anglatadi [15,17].

Har bir millat va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari va ularning psixologik tasnifi milliy mentalitetda ifodalanadi. Mentalitet – insonning "aqliy qobiliyati", "tafakkur tarzi" bo'lib, ya'ni ratsional xususiyatlar ham individual, ham guruh mentalitetiga tegishli. Mavhum fikrlash shakllari: tushunchalar, hukmlar va xulosalardir. Aql sohasida odamlar bir-biridan quyidagi ko'rsatkichlar bilan farqlanadi: tushunchalar to'plami; bu tushunchalarga kiritgan mazmuni (ma'nosi,); qo'llaniladigan tushunchalar doirasi haqidagi fikrlar; tushunchalarga ta'rif berish turlari; hukm va xulosalarni shakllantirishning turli malakalari.

Mentalitet tilda namoyon bo'ladi. Inson sezgilar orqali dunyo bilan bog'lanadi va til yordamida dunyoni biladi, bilimlarini kengaytiradi, ongi – tafakkuri, ya'ni mentaliteti shakllanadi va rivojlanadi. Tilning ahamiyati shundaki, u bizning tafakkur doiramizni cheklamaydi.

"Mentalitet milliy tilning xususiyatlari bilan belgilanadigan maxsus belgilar tizimi sifatida ham o'zini "namoyon" qiladi. Mentalitet tilda o'zini ob'ektivlashtiradi va til unda dunyo qadriyatlar tizimi va xatti-harakatlar normalari haqidagi g'oyalarning o'ziga xosligini shakllantiradigan asos bo'lib xizmat qiladi" [10, 65].

"Til – insonlar orasidagi aloqa vositasi, ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat a'zolarining fikr ifodalashi va o'zaro fikr almashinishi uchun xizmat qiladigan vositasidir" [16, 399].

Til mentalitetning tarkibiy tuzilishida muhim o'ringa ega, inson tafakkurining ifoda shakli va yashash formasi sifatida, voqelikni bilish shartlaridan hisoblanadi. Shu bilan birga u to'plangan bilimlarni, tajribalarni qayd qilish, saqlash va avloddan avlodga o'tkazish vositasi hamdir.

XX asr boshidagi "lingvistik" burilish, tilga ijtimoiy hodisa sifatida, insonning o'zaro muomala va dunyo haqidagi tasavvurlari yig'indisini ifodalashda muloqotning belgi mexanizmi, diskret belgilar tizimi sifatida qaraldi.

Til etnik guruhning asosiy tarkibiy qismlari orasida alohida o'rin tutadi va shaxs etnik shakllanishining eng muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. Tilning ijtimoiy mohiyati va tabiati haqidagi tezis tilshunoslikda asosiy bo'lib, uning asosida til va madaniyat, til va jamiyatning dialektik birligi tan olinadi.

An'anaviy etnologiya vakillari o'ziga xos nuqtai nazar bilan ajralib turadi, til va etnik jamoa o'rtasidagi bog'liqlik "tarixiy jihatdan eng qadimgi, tabiiy va barqarordir, chunki til odatda ma'lum bir etnik guruh ichida shakllanadi va rivojlanadi" [9, 157].

Til – ma'lum bir nutq jamoasining madaniyatni saqlash va uzatish orqali xalqni tashkil etuvchi etnosga an'analar, ijtimoiy o'zini o'zi anglashini shakllantiruvchi kuchli ijtimoiy vositadir. Unda til milliy hamjamiyatni bog'lovchi omil vazifasini bajaradi. Til etnik integratsiya omili sifatida, o'z-o'zini saqlab qolish va "biz" va "begona"larni ajratish vositasi bo'lib hisoblanadi.

O'zbek xalqining buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy turkiy tilning boyliklari va afzalliklarini "Muhokamatul-lug'atayn" asarida atroflicha bayon etgan.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Primqul Qodirovning "Til va el" asarida chet el olimlarining Alisher Navoiyga bergan bahosini quyidagicha ta'riflaydi: "Muhokamatul-lug'atayn" asarini o'qigan frantsuz olimi M.Bellin 1861 yilda yozgan kitobida Navoiyning ona tiliga e'tibor berganini vatanparvarlik deb ataydi. "Alisher Navoiy o'z milliy tilining afzaliyatlarini inkor etib bo'lmaydigan dalillar bilan isbot etganligi – o'z xalqi orasida vatanparvarlikni boshlab berganidan dalolatdir" [5, 36]. Bu esa Alisher Navoiyning "Tilga ixtiyorsizlik elga e'tiborsizlikdan kelib chiqadi", degan fikrini yana bir bor tasdiqlaydi.

Haqiqatan har bir insonning o'z tug'ilib o'sgan vatani, xalqi va millatiga e'tibori–milliy tilga e'tibordan boshlanadi.

"Dunyo tarixiga nazar tashlasangiz, qaysi mamlakatda milliy til davlat tiliga aylangan bo'lsa va shu tilda haqqoniy tarixiy asarlar yaratilsa, o'sha joyda taraqqiyot tezlashib borganini ko'rasiz. O'tgan asrlarda Angliya taraqqiyotini tezlashtirgan ingliz adabiy tilining davlat tiliga aylangani bu tilda Shekspir, Vol'ter Skott kabi yozuvchilar yorqin asarlar yozib, o'z xalqini dunyoga tanitgani alohida ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu fikrni Bal'zakning vatani Frantsiya, Gyo'tening vatani Germaniya, Lev Tolstoyning vatani Rossiya haqida ham aytish mumkin" [13, 6-7].

Shaxs mentaliteti shakllanishida ona tili muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir millat o'z ona tili orqali o'z xalqining hayoti, tarixi, turmush tarzi, turli afsonalari, ertaklari, xalq o'yinlari va fol'klor madaniyatini bolaligidan ongida aks ettiradi va rivojlantiradi.

Bu birlamchi etnik guruhning barcha a'zolari uchun–yashash joyi, jinsi, yoshi, din va e'tiqodi, partiyaga mansubligi, kasbi va oilasi faoliyati, ijtimoiy va mulkiy holatidan qat'iy nazar umumiy vositadir.

"XX asr boshida olti tilli – o'zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida lug'at tuzgan mashhur alloma Ishoqxon Ibratning mana shu hikmatli so'zlarini eslatmoqchiman: "*Bizning yoshlar, albatta boshqa tilni bilish uchun sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'tiyo qilib, ehtiromlar ko'rsatsinlar. Zero o'z ona tiliga sadoqat – bu vataniy ishdur*" [2, 31-32].

Til va millat o'rtasidagi munosabatlar masalasi ko'pincha an'anaviy madaniyatni saqlash muammosi bilan bog'liq holda muhokama qilinadi: chunki madaniyatning ko'p qismi mavjud til va u bilan ifodalangan bo'lsa, tilning yo'qolishi butun guruh madaniyatining yo'qolishiga olib keladi. "Tilda biz har doim millat xarakteridan til tomonidan idrok etiladigan narsa bilan asl lingvistik xususiyatning uyg'unligini topamiz" [8, 373].

Boshqacha aytganda, tilda nafaqat insonni o'rab turgan haqiqiy dunyo, balki uning hayot tarzi va xulq-atvori, shuningdek, etnik guruhning ijtimoiy o'z-o'zini anglashi, milliy xarakteri, an'analari, urf-odatlar, qadriyatlar tizimi, яъни mentaliteti aks etadi.

Til tarixan o'zining semantik makonida ifodalangan madaniy qadriyatlarni meros qilib oladi uning belgilarining ma'nolari – lug'atda, grammatikada, idiomada, maqollarda, matallarda, folklorda, badiiy va ilmiy adabiyotlarda, yozma shakllarda va og'zaki nutqda to'playdi va saqlaydi.

O'zbek xalqining mentaliteti, uning urf odatlari, uzoq tarixga ega bo'lgan an'analari ona tilimizning taraqqiyot yo'li bilan chambarchas bog'liqdir.

FALSAFA

“O‘z ona tilini bilmagan odam o‘zining shajarasini, o‘zining ildizini bilmaydigan, kelajagi yo‘q odam, kishi tilini bilmaydigan, uning dilini ham bilmaydi, deb juda to‘g‘ri aytishadi” [3, 69].

Xalq mustaqilligining asosiy belgisi – bu ona tili va milliy madaniyatidir. Millat tarixi – bu ular tilining tarixi sanaladi. Davlat rivojlanishi bilan Davlat tili ham rivojlanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqidagi Qonuni” qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi Qarorida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev shundan deydilar: – “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma‘naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy taraqqiyotida g‘oyat muhim o‘rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir” [1]. Alisher Navoiy bobomiz aytganidek, har bir insonning: tilga e‘tibori – bu avvalombor elga e‘tiboridan boshlanadi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib, xulosa qilib aytganda, har bir millatning obro‘- e‘tibori, davlat va jamiyat qurilishidagi islohotlarida til – millat qiyofasi, ma‘naviy boyligi timsolida namoyon bo‘ladi. Xalq va elatlarning madaniy urf-odatlarini til tufayli saqlanib qoladi va avloddan avlodga uzatiladi. Tillarni saqlab qolish bu o‘sha xalqning mentaliteti, o‘zligini anglashi, g‘ururi, madaniyati, urf-odati va an‘analarning boqiyiligini anglatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақидаги Қонуни” қабул қилинганлигининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисидаги ПҚ-4479-сон Қарори. 2019 йил 4 октябрь. // <https://lex.uz/>. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон – тараққиёт стратегияси.– Тошкент: “Ўзбекистон”, 2022. – Б.267; 31-31.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. -Тошкент: “Ўзбекистон”, 2011. –Б. 69.
4. Бекмуродов М. Ўзбек менталитети хусусиятлари. // Ижтимоий фикр. 1998. №1. –Б.98.
5. М.Беллин. Мир Алишер Навоий биографияси ва ижоди. Француз тилидан А.К.Боровков таржимаси - Париж, 1962. –Б.36.
6. Вундт В. Проблемы психологии народов. –Москва: Космос, 1912. –С.26.
7. Фулье А. Психология французского народа. //Революционный невроз. –Москва: КСП, 1998. –С.16.
8. Гумбольдт В. Языки, философия, культура. –Москва: Прогресс, 1985. – С. 373.
9. Козлов В.И. Язык. //Этнические и этносоциальные категории. Свод этнографических понятий и терминов. –Москва, 1995. №6. –С.157.
10. Радбиль Т.Б. Основы изучения языкового менталитета. – Москва: Флинта, 2013. - С. 65
11. Хоназаров Қ.Ҳ. Миллий менталитет – тараққиёт омили. // Мулоқот. –Тошкент, 2000. - №3. – Б.3.
12. Хоназаров Қ.Ҳ. Глобаллашув ва тил фалсафаси. Тошкент, 2009. Б.136.
13. Қодиров П. Тил ва эл. –Тошкент: “Маънавият”, 2010. –Б.6-7.
14. Курбаниязова Р.К. Давр руҳи ўзгаришларининг ижтимоий менталитетга таъсири. Фалс.фан. бўйича фалс.доктори дисс., - Тошкент, 2020. - Б. 60-61.
15. Курбаниязова Р.К. Жамият ўзгаришларининг ижтимоий менталитетга таъсири”. – Тошкент: “Fan va texnologiyalar nashriyot matbaa uyi”, 2022. – Б.17.
16. Фалсафа қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004. –Б.257; 399.